




2022- yil yanvar - fevral oyida ANDIJON VILOYATIDA xizmatlar sohasining rivojlanishi





2022- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.



**2022- yil yanvar-fevral****Dastlabki ma'lumotlar**

Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 399,5** mlrd. so'mga yetdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **112,0 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-fevral oylarida)





ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2022- yil yanvar - fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-fevral oyida)	Hajmi, mlrd. so'm	2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	2 399,5	112,0
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	119,03	119,1
Moliyaviy xizmatlar	534,3	140,1
Transport xizmatlari	446,9	107,3
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	436,5	105,3
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	43,9	104,7
Savdo xizmatlari	438,5	106,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	74,2	109,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	93,6	89,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	41,2	103,8
Ijara xizmatlari	53,1	78,0
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	54,1	110,1
Shaxsiy xizmatlar	117,9	109,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	21,6	118,9
Boshqa xizmatlar	60,6	113,4



2022- yil yanvar - fevral

Dastlabki ma'lumotlar


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan yuqori ulush


Nisbatan past ulush




Boshqa xizmatlar



**Kompyuterlarni
ta'mirlash xizmati**



Ijara xizmatlari



**Sog'liqni saqlash
sohasidagi xizmatlar**



**Yashash va ovqatlanish
xizmatlar**



**Me'morchilik sohasidagi
xizmatlari**

Savdo xizmatlari

30,8 %

Moliyaviy xizmatlar

22,3 %

Transport xizmatlari

18,6 %

**Aloqa va
axborotlashtirish
xizmatlari**

5,0%

Shaxsiy xizmatlar

4,9 %

**Ta'lim sohasidagi
xizmatlar**

3,9 %

**Ko'chmas mulk bilan
bog'liq xizmatlar**

3,1 %



2022- yil yanvar - fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2022- yil yanvar - fevral oylarida ularning ulushi **30,8 %** ni tashkil etdi.

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmida eng past o'sish qayd etilib, ularning ulushi atigi **0,9 %** ga yetgan.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar - fevral oylarida savdo xizmatlari umumiy hajmda **31,4 %** ni tashkil etdi. 2020- yilning shu davrida Me'morchilik sohasidagi xizmatlarining ulushi ham eng kichik bo'lgan – **0,9 %**.

2022- yil yanvar - fevral oylarida yuqori o'sish moliyaviy xizmatlari (**140,1 %**), Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (**118,9 %**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**118,9**), boshqa xizmatlari (**113,4 %**), ta'lim sohasida (**89,5 %**) qayd etildi.


Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-fevral oyida Moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi (**106,0 %**).



2022- yil yanvar - fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da



■ 2022- yil yanvar-fevral

**2022- yil yanvar - fevral****Dastlabki ma'lumotlar**

Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2022- yil yanvar - fevral oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **30,8 %** ni tashkil etdi, bu esa **738,5** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar - fevral oyida ularning hajmi **630,4** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmining **31,4 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

2021- yil
yanvar-fevral

Xizmatlar hajmi
630,4 mlrd. so'm

O'sish sur'ati
102,8 %

Ulushi
31,4 %



2022- yil
yanvar-fevral
Xizmatlar hajmi
738,5 mlrd. so'm

O'sish sur'ati
106,1 %

Ulushi
30,8 %




2022- yil yanvar - fevral

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar - fevral oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rttdan uch qismini, aniqrog'i **83,3 %** ini tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi (2022- yil yanvar- fevral oylarida)

**Avtomobillar
va mototsikllar ulgurji
va chakana savdosi,
jumladan, ularni
ta'mirlash xizmatlarini
qo'shgan holda**



**Ulgurji savdo
xizmatlari
(avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari)**

7,7 %

83,3 %

**Avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari chakana
savdo bo'yicha
xizmatlar**



9,1 %



**2022- yil yanvar - fevral****Dastlabki ma'lumotlar**

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobi bo'yicha olinadi.

Moliyaviy xizmatlar

(2022- yil yanvar - fevral oylarida)



Moliyaviy xizmatlar hajmi **534,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar - fevral oylarida ularning hajmi

381,2 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **22,3** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar - fevral oylarida ularning ulushi **19,0** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **153,1** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sishi **140,1** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar - fevral oylarida ularning o'sish sur'ati **106,0** % ga yetgan.

**2022- yil yanvar - fevral****Dastlabki ma'lumotlar**

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlarda moliyaviy xizmatlarning ulushi **82,4 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar - fevral oylari yakuniga ko'ra sug'urta xizmatlarining ulushi **4,1 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi
(2022- yil yanvar-fevral oyida)

2022- yil yanvar - fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2022- yil yanvar - fevral oylarida)

2021- y. yanvar-fevral

2022- y. yanvar-fevral

99,2
mlrd. so'm

110,0 %

4,9 %

Xizmatlar hajmi

O'sish sur'ati

**Jami hajmdagi
ulushi**

Hajmning o'sishi

19,8 mlrd. so'mga

119,0
mlrd. so'm

119,1 %

5,0 %




2022- yil yanvar - fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, **94,5 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2022- y. yanvar - fevral



**Telekommunikatsiya
xizmatlari**



**Boshqa aloqa va
axborotlashtirish xizmatlari**



Noshirlik xizmatlari



**Kompyuter dasturlashtirish
xizmatlari**



2022- yil yanvar - fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

**89,7
mlrd. so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi**

**93,6
mlrd. so'm**

**2021- y.
yanvar-
fevral**



**2022- y.
yanvar-
fevral**

2022- yil yanvar - fevral oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **93,6** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **3,9 %** ni tashkil etdi. 2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **134,2 %** ni tashkil etdi.

134,2%

O'sish sur'atlari, % da

89,5 %

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar - fevral oylarida xizmatlar hajmi **89,7** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2020- yilga nisbatan o'sish darajasi **134,2 %** da qayd etilgan.



2022- yil yanvar - fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



**Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm**

36,3

43,9

**2021- yil
yanvar-fevral**

**2022- yil
yanvar-fevral**



**O'sish
sur'ati, % da**

100,4

104,7

2021- yil yanvar - fevral oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **7,6** mlrd. so'mga ortdi.



2022- yil yanvar - fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

2022- y. yanvar-fevral

93,4 %

6,6 %



7,2 %

2021- y. yanvar-fevral

92,8 %

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash
bo'yicha xizmatlar**

Yashash bo'yicha xizmatlar

2022- yil yanvar-fevral oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **93,4%** bilan ustunlik qildi.



2022- yil yanvar - fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

**2021- yil
yanvar-fevral**

**2022- yil
yanvar-fevral**

**36,9
mlrd. so'm**

**Xizmatlar
hajmi**

**41,2
mlrd. so'm**

88,3 %

**O'sish
sur'ati**

103,8 %

1,8 %

**Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi**

1,7 %






2022- yil yanvar - fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, % da (2021- yil yanvar-fevral oyida)



2022- yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush Andijon shahriga tegishli – **64,8 %** (2021- yilda **33,5 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ulushlari Ulug'nor tumanida **1,4 %** (2021- yilda **2,5 %**) qayd etildi.



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2022- yil yanvar - fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan xizmatlar (2022- yil yanvar - fevral)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2022- y.	2021- y.
Andijon viloyati	2 399,8	112,0	105,5
Shaharlar:			
Andijon sh	1 554,0	113,1	106,0
Xonobod sh	63,5	107,9	103,7
Tumanlar:			
Oltinko'l	59,5	109,3	103,6
Andijon	61,2	111,9	105,2
Baliqchi	67,7	112,0	104,6
Bo'ston	43,2	107,0	102,8
Buloqbo'shi	37,1	109,7	104,0
Jalaquduq	49,9	110,5	103,7
Izboskan	64,8	108,6	104,7
Ulug'nor	32,8	106,3	102,5
Qo'rg'on-tepa	53,5	112,4	105,4
Asaka	56,4	112,8	105,8
Marhamat	40,7	109,0	104,4
Shahrixon	68,4	112,6	105,5
Paxtaobod	91,3	108,8	103,9
Xo'jaobod	54,7	108,0	104,4

**) hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda.*

**2022- yil yanvar - fevral****Dastlabki ma'lumotlar**

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi**Hajmning
o'sishi****745,0
ming so'm****108,7 ming
so'mga**

2022- yil yanvar - fevral oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **745,0** ming so'mga yetdi.

2021- yilning yanvar - fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati **109,8** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2021-yilning yanvar - fevral oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **362,9** ming so'mni tashkil etgan.

109,8 %**O'sish sur'ati**



2022- yil yanvar - fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2022- yilning 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

**25 565
birlik**

2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari

109,3 %

2021- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

**2 172
birlikga**

Ularning umumiy sonidagi ulushi


61,0 %

2022- yil yanvar - fevral

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yilning 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **61,0 %**, sanoat **22,7 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **8,6 %** ga yetdi. Qurilish sohasi **7,7 %** ga to'g'ri keladi.

2022- yilning 1- mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi
(*fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari*)



Taqqoslash uchun: 2021- yilning 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **62,1 %**, sanoat **22,9 %**, qurilish **8,3 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **6,7 %** ni tashkil etgan.




2022- yil yanvar - fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, 65,5 % da



65,5 %

2022- yil yanvar - fevral oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **65,5 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning 1- mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

1- mart holatiga

2022- y.

2021- y.

79,1 %

78,8 %

2022- yilning 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissi **79,1 %** ga to'g'ri keldi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi.

Tel.: 74-228-30-83